

SANOAT KORXONALARIDA INTEGRATSIYALASHGAN ESG VA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYAT HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH METODOLOGIYASI

Abduvaliyev Zafar Mahmudovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
dotsenti, if.f.d. (PhD)

ORCID:0000-0001-7291-1469

E-mail: z.abduvaliyev@taqu.uz

Annotatsiya

Tadqiqot sanoat korxonalarida ESG tamoyillari va korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan hisobot tizimiga kiritish metodologiyasini takomillashtirdi. Tadqiqot davomida xalqaro integratsiyalashgan hisobot tamoyillari, IFRS S1 va IFRS S2 standartlari hamda milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti qiyosiy tahlil qilindi. Muallif tomonidan korporativ ijtimoiy mas'uliyat, nomoliyaviy hisobot va buxgalterning professional fikriga oid metodologik yondashuvlar ishlab chiqildi. ESG ko'rsatkichlarini milliy schyotlar rejasiga integratsiyalash mexanizmi hamda integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamenti taklif etildi. Amaliy sinov natijalari taklif etilgan metodologiya korxonalarda axborot shaffofligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qilganini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan hisobot, ESG, korporativ ijtimoiy mas'uliyat, nomoliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, IFRS S1, IFRS S2, sanoat korxonalari.

Аннотация

Исследование было посвящено совершенствованию методологии интеграции показателей ESG и корпоративной социальной ответственности в систему интегрированной отчетности промышленных предприятий. В работе были сопоставлены международные принципы интегрированной отчетности, стандарты IFRS S1 и IFRS S2, а также национальная практика бухгалтерского учета. Были разработаны авторские методологические подходы к определению корпоративной социальной ответственности, нефинансовой отчетности и профессионального суждения бухгалтера. Кроме того, был предложен механизм интеграции ESG-показателей в национальный план счетов и регламент подготовки интегрированной отчетности. Практическая апробация подтвердила, что предложенная методология способствовала повышению прозрачности информации, более эффективному использованию ресурсов и улучшению экономических результатов предприятий.

Ключевые слова: интегрированная отчетность, ESG, корпоративная социальная ответственность, нефинансовая отчетность, бухгалтерский учет, IFRS S1, IFRS S2, промышленные предприятия.

Abstract

The study improved the methodology for integrating ESG indicators and corporate social responsibility into the integrated reporting system of industrial enterprises. International integrated reporting principles, IFRS S1 and IFRS S2

standards, and national accounting practices were comparatively analyzed. The research developed methodological approaches to corporate social responsibility, non-financial reporting, and professional accounting judgment. In addition, a mechanism for incorporating ESG indicators into the national chart of accounts and a framework for preparing integrated reports were proposed. Practical implementation confirmed that the proposed methodology enhanced information transparency, supported more efficient resource utilization, and improved the economic performance of industrial enterprises. The findings demonstrated the practical applicability of integrated reporting under national conditions.

Keywords: integrated reporting, ESG, corporate social responsibility, non-financial reporting, accounting, IFRS S1, IFRS S2, industrial enterprises.

KIRISH

Jahon moliya bozorlarining jadal globallashuvi va barqaror rivojlanish tamoyillarining (SDGs) institutsionallashuvi sharoitida sanoat korxonalarining korporativ hisobot tizimini transformatsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biriga aylandi. An'anaviy moliya hisoboti modeli o'zining retrospektiv tabiati, ya'ni faqatgina o'tmishda sodir bo'lgan moliya-xo'jalik faktlarini aks ettirishi tufayli, biznesning o'sishi va rivojlanishining qo'shimcha (nomoliyaviy) omillarini hisobga olmaydi [7]. Bu holat zamonaviy investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi steykholderlarning strategik axborotga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirishda jiddiy cheklanganlikni yuzaga keltirmoqda. Sanoat korxonalarida an'anaviy moliyaviy hisobotlardan bosqichma-bosqich voz kechib, integratsiyalashgan formatga o'tish obyektiv iqtisodiy zaruriyatga aylanmoqda [1]. Ayniqsa, yuqori kapital sig'imi, resurs sarfi va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish darajasi yuqori bo'lgan qurilish materiallari va og'ir sanoat tarmoqlarida korxonaning qisqa, o'rta va uzoq muddatli istiqbolda qanday qilib barqaror qiymat yaratayotganligini ko'rsatuvchi yaxlit integratsiyalashgan axborot tizimiga ehtiyoj o'ta yuqoridir.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor transformatsiyasi doirasida yirik aksiyadorlik jamiyatlari va sanoat korxonalarini Moliya hisobotining xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) o'tkazish bo'yicha tizimli qadamlar tashlandi [17]. Shu bilan birga, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi [18] doirasida sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish ustuvor vazifa etib belgilangan. Xalqaro Barqarorlik Standartlari Kengashi tomonidan qabul qilingan IFRS S1 va IFRS S2 standartlari ham global miqyosda barqarorlikka oid moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish majburiyatini mustahkamlamoqda [11]. Shunga qaramay, milliy amaliyotda nomoliyaviy va barqaror rivojlanish (ESG - Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobining analitik tizimi va yakuniy korporativ hisobotlar tarkibiga integratsiyalash mexanizmlari hamda ularni tartibga soluvchi me'yoriy-uslubiy hujjatlar tizimli ravishda ishlab chiqilmagan.

Sanoat korxonalarining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash va axborot shaffofligini xalqaro andozalarga moslashtirish maqsadida, mazkur tadqiqotda

integratsiyalashgan hisobotni joriy etish metodologiyasini milliy bozor xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Integratsiyalashgan hisobot konsepsiyasi va nomoliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilishning nazariy-uslubiy asoslari xorijiy va mahalliy ilmiy maktablar tomonidan keng tadqiq etilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasini tahlil qilish jarayonida tadqiqotchilarni shartli ravishda uchta yirik guruhga ajratish mumkin:

1. Xorijiy va G'arb olimlari: T. Oshika, S. Adams, R. Simnet, R. Ekkiz, J. Krons hamda korporativ hisobotning tizimli munosabatlarini tadqiq etgan R. Freeman, R.W. Ackerman kabi olimlar xalqaro IR prinsiplarining global moliya bozorlaridagi o'rni, kapitallarning o'zaro bog'liqligi (connectivity) va investorlarning qaror qabul qilish mantiqiga ta'sirini tadqiq etganlar [7].

2. MDH davlatlari olimlari: N.N. Balashova, V.A. Melixov, M.A. Vaxrushina, M.V. Krasnova, M.V. Duz, O.V. Yefimova, S.V. Levicheva, N.V. Pislegina, N.A. Loxanova, N.V. Malinovskaya, Yu.I. Sigidov, D.A. Nastenkov, O.V. Soloveva, O.A. Chernikova, A.N. Chernikov, N.G. Bochkareva, N.N. Shamonin kabi iqtisodchilar integratsiyalashgan hisobot turlari, uning tarkibiy qismlari va shaffofligini ta'minlash muammolarini o'rganganlar. Shuningdek, S.F. Legenchuk tahriri ostidagi monografik maktab doirasida K.V. Bezverxiy steykholderlar bilan aloqa munosabatlarini [6], I.V. Zamula va V.V. Travin ekologik buxgalteriya hisobini [20], V.V. Muravskiy elektron integratsiyalashgan hisobotni vizuallashtirishni [16] va O.I. Malishkin xalqaro direktivalarga muvofiqlik modellarini [13] shakllantirganlar. Korporativ hisobot metodologiyasini takomillashtirish masalalari E.V. Nikiforova, R.G. Kaspina, A.N. Xorin, N.G. Sapojnikova va L.Z. Shneydman asarlarida ham o'z aksini topgan [4].

3. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar: A.K. Ibragimov, B.A. Xasanov, S.U. Mexmonov, N.Q. Rizayev, K.B. Axmedjanov, R.O. Xolbekov, N.B. Abdusalomova, N.Sh. Xajimurodovlar tomonidan buxgalteriya hisobining muayyan sohalarida, xususan, ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv hisobi, intellektual mulk obyektlari hisobi, ichki audit va moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash yo'nalishlarida izlanishlar olib borilgan.

Biroq, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda integratsiyalashgan hisobot tuzish hamda uni aynan milliy sanoat tarmoqlari (xususan, qurilish materiallari sanoati) xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ichki va tashqi steykholderlar darajasida tashkiliy-uslubiy jihatdan takomillashtirish masalalari yaxlit tizim sifatida o'rganilmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonli yondashuv hamda kompaniyaning hayot sikli pozitsiyasiga tayanadi. Buxgalteriya hisobi tizimidagi o'ziga xosliklar Xalqaro hisob standartlari kengashi (IASB) tavsiyalari va xalqaro Barqarorlik standartlari [11] mezonlari bilan solishtirma tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari tanlab olindi va tahlillar "O'zsanoatqurilishmateriallari"

uyushmasining rasmiy yillik korporativ yig'ma hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan tarmoq ko'rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Nomoliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlash, hisob tizimidagi noaniqliklarni bartaraf etish hamda "shaklga nisbatan mazmunning ustuvorligi" talabini bajarish maqsadida buxgalterning professional fikri uslubiy vosita sifatida qo'llanildi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida an'anaviy iqtisodiy yondashuvlar kengaytirilib, global Barqaror rivojlanish tashabbusi (GRI Standards) hamda Xalqaro integratsiyalashgan hisobot kengashining (IIRC) talablaridan kelib chiqib, quyidagi uchta tushunchaga mualliflik ta'rifi berildi [3]:

- Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM): Kompaniyaning faoliyat ko'rsatayotgan hududdagi tegishli tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligini kengaytirish, obro'sini mustahkamlash, salbiy ta'sir va nomoliyaviy risklarni kamaytirish, pirovardida mulk egalari (ta'sischilar, aksiyadorlar) uchun foydani ko'paytirish maqsadida KIM tamoyillarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga (biznes-jarayonlariga) integratsiyalashuvdir.

- Nomoliyaviy hisobot: Asosiy manfaatdor tomonlar uchun kompaniya faoliyatining biznesni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bilan bog'liq asosiy jihatlari va natijalari haqidagi, shaffoflikni ta'minlovchi, ishonchli hamda qulay tarzda taqdim etiladigan va ixtiyoriy ravishda e'lon qilinadigan ma'lumotlar majmuidir.

- Buxgalterning professional fikri: Buxgalteriya tizimida haqiqatga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradigan xo'jalik faoliyati jarayonlari o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniqlash, o'rnatish va baholash hamda foydalanuvchilar o'rtasida noaniq baholarning shakllanishi va noto'g'ri taqdim etilishiga yo'l qo'ymaydigan ilmiy fikrlashning maxsus shaklidir.

Xalqaro IR frameworkida axborot hajmining haddan tashqari ko'pligi va takrorlanishlarni bartaraf etish maqsadida, bir-biriga yaqin bo'lgan tarkibiy elementlarni ixchamlashtirish va "Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik" bo'limini mustaqil tahliliy blok sifatida ajratish taklif etildi. R. Freeman (1984) tomonidan asos solingan klassik steykholderlar nazariyasi milliy bozor sharoitiga moslashtirilib, uchta strategik toifaga ajratildi [14]:

- Shareholders: Korxonaning bevosita investorlari va mulkdorlari (moliyaviy kapital ta'minotchilari).

- Steykvaucherlar: Korxona faoliyatining ijtimoiy va ekologik oqibatlaridan ta'sirlanuvchi jamoat guruhlari, kasaba uyushmalari va mahalliy aholi.

- Steykipperlar: Korxonaning qonuniy va me'yoriy doirada faoliyat yuritishini nazorat qiluvchi davlat institutlari hamda soliq va ekologik inspeksiya.

Nomoliyaviy ko'rsatkichlarning boshqaruv va moliyaviy hisob tizimining uzviyligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy schyotlar rejasiga maxsus analitik va sintetik sub'schyotlar tizimini joriy etish

metodologiyasi ishlab chiqildi [4]. Ushbu tizim orqali korxona balansida va davr xarajatlarida KIM va ESG indikatorlari quyidagicha tizimlashtiriladi (1-jadval):

1-jadval

Sanoat korxonalari schyotlar rejasida ESG va KIM indikatorlarini integratsiyalash sxemasi [10]

Sintetik schyot	Taklif etilayotgan sub'schyot va uning iqtisodiy mazmuni	Yo'naltirilgan kapital turi	ESG komponenti
0400 (Nomoddiy aktivlar)	0490 — "Ekologik va ijtimoiy reputatsiya (Kompaniya brendi va ijtimoiy jozibadorligi)"	Ijtimoiy-reputatsion kapital	S
1000 (Materiallar)	1011 — "Energiya tejakor, innovatsion va ekologik xavfsiz xomashyolar"	Ishlab chiqarish / Tabiiy kapital	E
2000 (Asosiy ishlab chiqarish)	2020 — "Atrof-muhit muhofazasi, chiqindilarni utilizatsiya qilish va ekologik kompensatsiya xarajatlari"	Tabiiy kapital	E
9400 (Davriy xarajatlari)	9440 — "Inson kapitaliga investitsiyalar, xodimlarni qayta tayyorlash va mehnat xavfsizligi xarajatlari"	Inson kapitali	S/G

Tadqiqotning amaliy yakuni sifatida, sanoat korxonalarida hisobot tuzish jarayonini standartlashtiruvchi "Integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamenti loyihasi" ishlab chiqildi [5]. Biznes-jarayonlarni qayta loyihalash tamoyillari doirasida korxonada axborot to'plashning "izolyatsiya" holatidan chiqish tizimi yo'lga qo'yildi.

Ushbu reglament "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi yirik ishlab chiqarish korxonalarida sinovdan o'tkazildi. Eksperiment natijasida olingan real ma'lumotlar korxonalarning amaliyotga joriy etish rasmiy hujjatlari va ichki hisobot ma'lumotlari asosida 2-jadvalda jamlandi.

2-jadval

Reglament loyihasini joriy etish natijasida erishilgan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari [19]

Amaliyot joriy etilgan korxona nomi	Erishilgan iqtisodiy samara va uning tarkibiy ko'rsatkichlari	Iqtisodiy ko'rsatkich dinamikasi, foizda
"Gazobeton stroy" MChJ	Mahsulot sotishdan olingan sof tushumning ortishi	3,0
"Nukus imorat Servis" MChJ	Ishlab chiqarilgan qurilish materiallari tannarxining pasayishi	-3,0
"Temir beton" MChJ	Tayyor mahsulot tannarxini optimallashtirish va resurs tejash	- 3,0
"Orient ceramic" MChJ	Axborot shaffofligi hisobiga mahsulot sotish hajmining o'sishi	8,0

Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisobot metodologiyasini takomillashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, nomoliyaviy axborotlarni oshkor qilish shunchaki formal deklarativ jarayon emas, balki korxonada integratsiyalashgan

fikrlash (integrated thinking) tizimini va strategik boshqaruvni shakllantirishning asosiy drayveridir.

Xalqaro miqyosda S.F. Legenchuk tahriri ostidagi monografik maktab vakillari [6] integratsiyalashgan hisobotni asosan korxonaning tashqi muhit oldidagi shaffoflik vositasi sifatida baholaydilar [12]. Biroq, biz erishgan natijalar va O'zbekiston sanoat korxonalarida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan hisobot ichki samaradorlikni oshirish va korxona hayot siklini barqarorlashtirish funksiyasini ham bajaradi. 2-jadvalda keltirilgan tushumning o'sishi (+8%) va tannarxning pasayishi (-3%) buning yaqqol isbotidir. Nomoliyaviy ko'rsatkichlarning (masalan, energiya auditi, xodimlar motivatsiyasi indeksi) tizimlashtirilishi ichki yo'qotishlarni kamaytirishga va resurslardan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Sanoat korxonalarida an'anaviy moliyaviy hisobotlardan bosqichma-bosqich voz kechib, integratsiyalashgan formatga o'tish obyektiv zaruriyatdir [1].

Nazariy jihatdan olganda, tadqiqotimizda ilgari surilgan steypolderlarni Shareholders, Steypvaucherlar va Steypkkerlar kabi toifalarga ajratish yondashuvi an'anaviy hisob modellaridagi axborot assimetriyasi (information asymmetry) muammosini tubdan hal qiladi [14]. An'anaviy model faqatgina aksiyadorlarning mafidorligiga xizmat qilib, atrof-muhit va jamiyat manfaatlarini chetda qoldirar edi. Taklif etilayotgan model esa ekologik risklarni va korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) tamoyillarini pul ko'rinishida aks ettirish orqali nazorat organlari va investorlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. KIM tizimini joriy etish shunchaki ixtiyoriy xayriya emas, balki kompaniyaning uzoq muddatli qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik instrumentdir [3].

Ilmiy hamjamiyatda dolzarb diskussiyaga sabab bo'layotgan masala - nomoliyaviy kapitalarni (ayniqsa, tabiiy va inson kapitalini) buxgalteriya hisobida to'g'ri baholash (monetization) muammosidir. G'arb amaliyotida qo'llaniladigan sof bozor qiymati uslubiyoti O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyoti mamlakatrixda yuqori subyektivlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, xalqaro amaliyotda tavsiya etilgan normativ-tiklash xarajatlari yoki muayyan analitik mezonlar [9] asosida ekologik aktiv va majburiyatlarni baholash yondashuvi milliy qonunchilik va amaliyot uchun eng optimal variant hisoblanadi.

Raqamlashtirish nuqtai nazaridan, V.V. Muravskiy tomonidan ilgari surilgan elektron integratsiyalashgan hisobot g'oyasini [16] O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot platformalari va XBRL (eXtensible Business Reporting Language) taksonomiyasi asosida joriy etish lozim [5]. Bu milliy sanoat korxonalariga xalqaro birjalarda "yashil obligatsiyalar" chiqarish orqali xorijiy investitsiyalarni arzon narxlarda jalb qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot sanoat korxonalarida ESG tamoyillari hamda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan hisobot tizimiga kiritish metodologiyasini takomillashtirishning ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirdi. Qiyosiy tahlil natijalari xalqaro integratsiyalashgan hisobot tamoyillari, IFRS S1 va IFRS S2 standartlari hamda milliy buxgalteriya hisobi amaliyotini o'zaro

uyg'unlashtirish korporativ axborotning shaffofligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatdi. Taklif etilgan metodologik yondashuvlar nomoliyaviy axborotni moliyaviy hisobot bilan bog'lash, manfaatdor tomonlarning axborot ehtiyojlarini to'liqroq qondirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash imkonini bergani asoslandi.

Amaliy sinov natijalari ESG ko'rsatkichlarini schyotlar rejasiga integratsiyalash hamda integratsiyalashgan hisobotni tayyorlash reglamentini joriy etish korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish, axborot shaffofligini kuchaytirish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qilganini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- birinchidan, sanoat korxonalarida ESG va korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalash uchun yagona metodik tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

- ikkinchidan, milliy schyotlar rejasini ESG ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi analitik subschyotlar bilan to'ldirish hamda ularni korporativ hisobot amaliyotiga joriy etish tavsiya etiladi;

- uchinchidan, integratsiyalashgan hisobotlarni tayyorlashda IFRS S1 va IFRS S2 standartlari talablari asosida nomoliyaviy axborotni ochiqlash amaliyotini kengaytirish zarur;

- to'rtinchidan, integratsiyalashgan hisobotlarni raqamli platformalar va XBRL texnologiyalari asosida shakllantirish orqali hisobotlarning xalqaro taqqoslanuvchanligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi sanoat korxonalarida integratsiyalashgan hisobot tizimini rivojlantirish, ESG tamoyillarini amaliy boshqaruvga chuqurroq tatbiq etish hamda korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvaliyev, Z. M. (2020a). Korxonalarda integratsiyalashgan hisobot shakllantirishga o'tish zamon talabidir. TDTU Ilmiy jurnali (Ta'lim tizimida ijtimoiy-humanitar fanlar), №2, 39-45-b.

2. Abduvaliyev, Z. M. (2020b). Integratsiyalashgan hisobotni shakllantirish muammolari va rivojlanish istiqbollari. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, №12, 112-118-b.

3. Abduvaliyev, Z. M. (2021a). Korporativ ijtimoiy mas'uliyat: rivojlanish bosqichlari va istiqbollari. Jamiyat va boshqaruv (OAK jurnali), №3 (93), 45-52-b.

4. Abduvaliyev, Z. M. (2021b). Methodological aspects of non-financial corporate reporting formation. The American Journal of Management and Economics Innovations, Vol. 3, Issue 04, pp. 42-53.

5. Abduvaliyev, Z. M. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida integratsiyalashgan hisobotni reengineering qilish modeli. International Scientific-Online Conference "Innovation in the Modern Education System" (Washington, USA), Part 18, pp. 25-34.

6. Bezverkhyi, K. V. (2019). Specifics of implementing certain principles of integrated reporting of business entities. In S. F. Legenchuk (Ed.), Development of Integrated Reporting of Enterprises (pp. 7-31). Zhytomyr Polytechnic.
7. Eccles, R. G., Krzus, J. P. (2014). The Integrated Reporting Movement: Meaning, Momentum, Motives, and Materiality. John Wiley, Sons.
8. Freeman, R. E. (1984). Strategic Management: A Stakeholder Approach. Pitman.
9. Global Reporting Initiative (GRI). (2021). GRI 300: Environmental Standards Series. Global Sustainability Standards Board (GSSB).
10. International Integrated Reporting Council (IIRC). (2021). The International Framework. IIRC.
11. International Sustainability Standards Board (ISSB). (2023). IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information. IFRS Foundation.
12. Legenchuk, S. F. (Ed.). (2019). Development of Integrated Reporting of Enterprises: Monograph. Zhytomyr Polytechnic. 268 p.
13. Malyshkin, O. I., Yarmolitska, O. V. (2019). Integrated reports of companies through the prism of International Standards and EU Directives. In S. F. Legenchuk (Ed.), Development of Integrated Reporting of Enterprises (pp. 144-166). Zhytomyr Polytechnic.
14. Maxsudov, B. Yu., Abduvaliyev, Z. M. (2021a). Manfaatdor tomonlar (steykholderlar)ning korporativ ijtimoiy mas'uliyatdagi roli. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №3, 1-10-b.
15. Maxsudov, B. Yu., Abduvaliyev, M. Z. (2021b). Theoretical Foundations of the Formation of Corporate Reporting. Academic Journal of Digital Economics and Stability, Vol. 8, pp. 12-24.
16. Muravskiy, V. V. (2019). Electronic integrated reporting: visualization and implementation. In S. F. Legenchuk (Ed.), Development of Integrated Reporting of Enterprises (pp. 105-123). Zhytomyr Polytechnic.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevral PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4746047>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-8050769>
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. (2024). O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (Statistik to'plam). Davlat statistika qo'mitasi nashriyoti.
20. Zamula, I. V., Travin, V. V. (2019). Problems of forming reporting information regarding environmental aspects of enterprise activity. In S. F. Legenchuk (Ed.), Development of Integrated Reporting of Enterprises (pp. 32-46). Zhytomyr Polytechnic.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOST 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**